

**SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHЛИGINI TAMINLASH  
YO'NALISHLARI**

**Abdullayeva Nafisa Bahodir qizi**  
*Magistr TDIU*

**Annotatsiya.** Maqolada jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lami kengaytirishda yengil sanoat korxonalarda marketing strategiyalarini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fiklar qalamga olingan.

**Kalit so'zlar:** raqobatbardosh mahsulot, ishlab chiqarish, yengil sanoat, korxona, marketing, strategiya.

**Abstract.** The article discusses the peculiarities of the development of marketing strategies in light industry enterprises in the expansion of production of competitive products in the global market.

**Keywords:** competitive product, manufacturing, light industry, enterprise, marketing, strategy.

### **KIRISH**

Engil sanoat mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan tarmoqlardan biridir. Ushbu sanoat tarmog'ini yanada rivojlantirishning imkoniyatlari kengligini e'tiborga olib, tarmoqning samaradorligini yanada oshirish, xalqaro bozorlarga mos raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat brendini butun dunyoga tanitish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan ishlab chiqarilayotgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlarning hajmi va turlarini kengaytirish, paxta xom ashyosini yetishtirish va qayta ishlash samaradorligi va rentabelligini oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, mamlakatimizda mazkur sohani yanada rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar izchil ro'yobga chiqarilmoxda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 dekabrdagi PQ-2687-son qarori bilan 2017-2019-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan.

Bugungi kunda respublikada 7 mingga yaqin korxona faoliyat olib borayotgan yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan to'qimachilik tarmog'i shakllantirildi. 1,4 million tonna hajmdagi paxta tolasini ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi, shundan 60 foizga yaqinidan mahalliy to'qimachilik korxonalarining ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanimoxda. Eng avvalo, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish, tarmoqni boshqarishni tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish quvvatlarining taqsimlanishi, kadrlar malakasining yuqori emasligi bilan bog'liq tizimli muammolarning mavjudligi paxta

xom ashyosini yetishtirishning past rentabelligiga va uni qayta ishlashga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilishning yetarli darajada emasligiga olib kelmoqda.

**Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини 2021-2026 йилларда ривожлантиришнинг мақсадли параметрлари**

№	Маҳсулотлар номи	Ўлчов бирлиг и	Хисобот	Прогноз						Ўсиш суръати
			2021 йил	2022 йил	2023 йил	2024 йил	2025 йил	2026 йил		
1.	Тўқимачилик ва тикув-трикотаж маҳсулотини ишлаб чиқариш ҳажмлари	млн. долл	6 352,1	7 154,2	8 402,2	9 681,1	11 405,5	13 032,5	2,5 баробар	
1.1	Ип калава	МИНГ тн.	862,3	905,0	963,0	990,3	1 032,5	1 300,0	1,5 бар.	
.2	Тайёр газламалар	млн. кв.м	6,2	71	810,0	1 215,0	1 860,0	2 710,5	3 100,0	4,3 бар.
.3	Трикотаж матолар	МИНГ тн.	203,8	240,0	312,0	390,0	485,0	580,0	2,8 бар.	
.4	Тикув-трикотаж маҳсулотлари	млн. дона	1 997,8	2 300,0	2 850,0	3 080,0	3 205,3	3 461,7	1,7 бар.	
1.5	Пайпоқ маҳсулотлари	млн. жуфт	458,4	460,0	470,0	480,0	490,0	505,0	1,1 бар.	
2	Экспорт	млн.до лл.	2 931,2	3 300,0	4 290,7	5 407,5	6 524,2	7 641,0	2,6 баробар	

Bundan kurnib turibdiki yengil sanoatning bir yo'nalishi bo'lgan To'qimachilik sanoatida raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar natijasida 2026-yilgacha sezilarli darajada o'sish kutilmoqda. Jumladan Ip kalava yo'nalishi bo'yicha 1.5 barobar, Tayyor gazlamalar yo'nalishi bo'yicha 4.3 barobar, Trikataj matolar yo'nalishi bo'yicha 2.8 barobar, Tikuv -trikataj maxsulotlari yo'nalishi bo'yicha 1.7 barobar, Paypoq maxsulotlari yo'nalishi bo'yicha 1.1 barobar, Eksport bo'yicha 2.6 barobar o'sish kutilmoqda.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxona raqobatbardoshligini oshirish borasida marketing strategiyalarni ishlab chiqish maqsadida quyidagi tadbirlarni o'tkazishni tavsiya etamiz:

korxona mahsulotlarining aksariyat qismi eksportga yo'naltirilganligini e'tiborga olgan holda, eksport bo'limi mutaxassislarida marketing xizmatlari ko'nikmalarini rivojlantirish;

bugungi kunda reklama faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari ko'pligini e'tiborga olib ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish, korxonaning internetdagи saytini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar reklamasi, mahsulotlar tavsifi, sifat darajasi, ISO standartlari asosida mahsulot ishlab chiqarilayotganligi kabi ma'lumotlar bazasi bilan ta'minlash; korxonani rivojlantirish bo'yicha har bir bo'lim va tsexlarning strategik

rejalarini ishlab chiqish;

raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida ishchi - xodimlar lavozim yo'riqnomalari tarkibini qayta ko'rib chiqish va mahsulot sifat darajasini oshirish bo'yicha talablar kiritish;

buyurtmaga ko'ra mahsulot tayyorlanayotganda ipning turiga mos paxta sortidan foydalanish, qoldiqlardan foydalanmaslik, boshqa sort paxtalarni aralashtirmaslik kabi korxona imijiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldini olish bo'yicha ishchi-xodimlar mas'uliyatini oshirish; sohaga berilayotgan imtiyozlardan samarali foydalangan holda, to'qimachilik sohasida eng ilg'or davlatlardan zamonaviy stanoklar olib kelish va mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2016 yil 21 dekabrdagi "2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ-2687-sonli qarori.

2. Максимова И.В. Оценка конкурентоспособности промышленного предприятия // Маркетинг. – 1996, №3. 33-39 б.

3. Bekmurodova G.A. Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishning innovatsion marketing kontseptsiyasini takomillashtirish. Dissertatsiya. – T:TDIU, 2017. 49 б.

4. Boltabaev M.R. "To'qimachilik sanoati korxonalarining raqobatdoshligini baholash uslubini takomillashtirish". T: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2011, №1. 1-2 б.

5. SHaripov I.B., Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini baholash uslublarini takomillashtirish. – T: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2017, №3. 3 б. 9. Чайникова Л.Н., Чайников В.Н. Конкурентоспособность предприятия:

учебное пособие. - Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2007. – 192 б